

**O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" HAMDA "TUSHDA
KECHGAN UMRLAR" ASARLARI LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI**

Magistrant Davlatova Rushana Ilhom qizi

rushanadavlatova727@gmail.com

Annotatsiya: Quyidagi ilmiy maqolada O'tkir Hoshimov asarlari ilmiy tahlili, va ularda urush mavzusining ifodalanishi xususidagi ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Urush asorati, urush mavzusi, „Ikki eshik orasi“, qahramon ruhiyati, mafkura targ‘iboti, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, “Urushlar haqida”

Abstract: The following scientific article analyzes the scientific analysis of the works of O'tkir Hashimov, and the information about the expression of the theme of war in them.

Key words: Complexity of war, theme of war, "Between Two Doors", hero's spirit, propaganda of ideology, "Inscriptions on the border of the notebook", "About wars"

Аннотация: В данной научной статье анализируется научный анализ произведений Уткира Хашимова, а также информация о выражении в них темы войны.

Ключевые слова: Сложность войны, тема войны, «Между двух дверей», дух героя, пропаганда идеологии, «Надписи на полях тетради», «О войнах».

O'tkir Hoshimov – taniqli o‘zbek yozuvchisi va jamoat arbobi. 1941-yili 5-avgustda Toshkentda Do‘mbirobod mahallasida tug‘ilgan. Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida o‘qigan. Turli tahririyat va nashriyotlarda ishlagan. Shuningdek, u O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar qo‘mita raisi vazifasini bajargan. O’tkir Hoshimov 1941-yil, 5- avgustda Toshkent shahrida oddiy bir oilada dunyoga keldi. Yozuvchining bolaligi urush va urushdan keyingi mashaqqatli davrga to‘g‘ri keldi. „O‘scha davrda non tanqis bo‘lgani bilan kutubxonalarda kitob ko‘p edi“, deya eslagan edi yozuvchi o‘z xotiralarida.[1] Kitob o‘qish barobarida O’tkir Hoshimov pochtada xat tarqatuvchi bo‘lib ishladi. Aynan mana shu ish O’tkir Hoshimovni oddiy odamlarning kitobdagi hayotdan butunlay boshqa turmushiga oshno qildi. Bo‘lajak yozuvchi 1964-yilda O‘zbekiston Milliy universitetining (sobiq ToshDU) filologiya fakulteti jurnalistika bo‘limini sirtdan tugatdi. 1959–

1962-yillari „Qizil O‘zbekiston“, 1963–1966-yil „Toshkent haqiqati“ 1966– 1982-yillari „Toshkent oqshomi“ gazetalarida adabiy xodim bo‘lib ishladi. Uning kitoblari juda qiziqarli va hayotiy kitob hisoblanadi "Ikki eshik orasi" va "Dunyoning ishlari" asarlari juda sevimli va mashhur. Adibning "Dunyoning ishlari" qissasi 1982- yil yaratilgan. Yozuvchining ilk asari 1962-yilda „Po‘lat chavandoz“ nomida ocherklar to‘plami tarzida nashrdan chiqdi. Ammo yozuvchiga muvaffaqiyat keltirgan asar 1970- yilda nashr qilingan „Bahor qaytmaydi“ qissasi bo‘ldi. METODOLOGIYA O‘sha paytda nashr qilinayotgan mafkura targ‘ibotidan iborat asarlar fonida yozuvchi O‘tkir Hoshimovning oddiy insoniy munosabatlar haqidagi bu asari qorong‘u osmonda chaqnagan mushak kabi eslanadi. Bu asar asosida suratga olingan videofilm o‘z vaqtida eng ko‘p tomosha qilingan asar sifatida tarixga kirdi. O‘tkir Hoshimovning bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. „Xazon bo‘lgan bahor“, „Inson sadoqati“ (1975), „Vijdon dorisi“, „To‘ylar muborak“ (1979), „Qatag‘on“ kabi drama, komediya, bir qator kinossenariyalar muallifi. „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“ (2001) kitobi ijtimoiy -ma’naviy hayotda muayyan iz qoldirgan. O‘tgan asrning sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan 70-yillarida O‘tkir Hoshimov O‘zbekiston televideniesida „Bahs“ deb nomlangan eshittirishlarni olib bordi. Bu eshittirishlar yozuvchining „Qalbingga qulq sol“ 2 , "Dunyoning ishlari" „Nur borki, soya bor“ kabi asarlarida ko‘tarilgan o‘tkir ijtimoiy muammolar haqidagi bahslarning davomi bo‘ldi. Keyinchalik yozuvchi „Ikki eshik orasi“ (1986), „Tushda kechgan umrlar“ (1994) romanlarida zamondosh-asrdosh odamlar taqdirini, 20-asrning eng keskin fojiaviy hodisalari Ikkinci jahon urushi hamda mustabid tuzumning jinoyatkorona siyosati oqibatlari bilan bog‘liq holda tahlil va talqin etishga urindi. Hali O‘zbekistonda Sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan 1990-yilda O‘tkir Hoshimov o‘zi bosh muharrir bo‘lgan „Sharq yulduzi“ jurnalida Qur’oni karimning ilk o‘zbekcha tarjimasini chop qilishga jur’at qildi. Tarixga Gorbachev hurriyati deya kirgan "Qayta qurish va oshkoraliq" davri O‘tkir Hoshimovga jasorat berdi, deya aytish mumkin. O‘sha paytdagi O‘zbekiston rahbariyati zehniyatida ashaddiy ateizm mavjudligi hisobga olinsa, bu haqiqatda jasorat namunasi deya eslanadigan qadam.



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st October - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

„Tushda kechgan umrlar“ — o‘zbek yozuvchisi O’tkir Hoshimov qalamiga mansub roman. 1993-yil yozib tugatilgan roman ilk bor „Sharq yulduzi“ jurnalida serialashtirilgan.¹

Kitob o‘laroq 1994-yil Toshkent shahrida „Sharq“ nashriyotida chop etilgan.

„Tushda kechgan umrlar“ Hoshimovning eng taniqli asarlaridan biridir. Roman tanqidchilar tomonidan yaxshi kutib olingan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad, „Romanni loqayd-hayaajonsiz o‘qib bo‘lmaydi. U kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqa narsa solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg‘ish yog‘diradi“, deya yuqori baholagan².

Romanda tugun ham o‘ziga xos tarzda qo‘yilgan. Asarda mavjud syujet liniyalari o‘z tuguniga ega bo‘lishi mumkin ekan. Tugun asar voqealarining boshlanishiga turki bo‘lgan voqe, asar konflikti qo‘yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o‘larоq, tugun syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya’ni u sujetda har vaqt hozirdir. Tugun, odатда, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan keyinoq beriladi. Shunisi ham borki, ba’zi katta hajmli asarlar sujetida bir emas, bir nechta tugunga duch kelishimiz ham mumkin. “Tushda kechgan umrlar”da ham shunday. Rustamning Afg‘on urushiga olinishi Rustam liniyasining tuguni bo‘lsa, Soat G‘aniyevning ko‘nglida “eshonvachcha” Fotimaga nisbatan nimalarnidir uyg‘onishi va bolalar tomonidan izzat-nafsi kamsitilgandagi holati komissar liniyasining tuguni. Tugundan keyingi voqealar zanjiri voqe rivoji deb yuritiladi. Odатда syujet voqealari bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, undagi konflikt benihoya kuchaygan o‘rni kulminatsiya deb yuritiladi. Masalan, Rustamning o‘limi roman kulminatsiyasi sanaladi. Undan tashqari komissarning o‘g‘li Mauzer tomonidan “Sizning o‘g‘lingiz ekanimdan uyalaman” deb aytgan paytdagi holatni komissar liniyasining kulminatsiyasi deyish mumkin. Chunki, ayni shu nuqtada komissarning va tuzumning g‘ayriinsoniylikka asoslangan qiyofasi ko‘rsatiladi. Mana shu gap Soat G‘aniyev ko‘ksini o‘qdek teshib o‘tadi. Kulminatsiya endi asar voqealarining yechimga tomon intilishini, bir tomonga hal bo‘lishini taqozo qiladi. Yechim syujet voqealari rivojining yakuni, ularning nihoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatdir. Yechimda

¹ „Tushda kechgan umrlar“. *Taqvim*. 2016-yil 5-oktyabrda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2016-yil 4-oktyabr. ([Wayback Machine](#) saytida 2016-10-05 sanasida [arxivlangan](#))

² Нарзуллоева, Нилуфар. „Сайд Ахмаднинг замондошлари хақидаги хотиралари“. *Talqin va tadqiqotlar*”. № 12. 104–112-bet.

konfliktholat, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar o‘zining badiiy yechimini topadi. Yechim konfliktning hal bo‘lganini ko‘rsatishi bilan birga uning hal bo‘lmasligini ham ko‘rsatadi. Rustam liniyasi konfliktini yechimi berilmagan. U o‘z joniga qasd qilgan. Komissar liniyasining yechimi esa qo‘rinchli tushlar, yolg‘izlik, odamni yutaman deb turgan uyda tong otishini kutib, nomalum xadik bilan yashashdir. Qurbonoy xola liniyasida esa, barcha bo‘lib o‘tgan ishlar Olloning irodasi ekani aytildi.

Ma’lumki, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar makon va zamonda kechadi, shunga ko‘ra adabiyotshunoslikda “badiiy vaqt” tushunchasi keng qo‘llaniladi. “Tushda kechgan umrlar”da yozuvchi ijodiy niyatini amalga oshirish yo‘lida “badiiy vaqt” imkoniyatlaridan keng foydalangan. Adib zarur o‘rinda asar vaqtidan chekinib, o‘tmishda yuz bergan voqealarni tasvirlaydi bu narsa “retrospektiv vaqt” deyiladi. Yozuvchi “parallel vaqt” dan ham unumli foydalangan. Unda yuz berishi jihatidan bir paytga to‘g‘ri keladigan voqealarni navbatil bilan tasvirlagan. Rustamning Afg‘on urushida ekani voqeasi, dadasing qamalishi, komissarning o‘g‘illari bilan bog‘liq kechayotgan hayoti, Qurbonoy xolaning qizi Umida va nabiralari bilan kechayotgan voqealar tasvirining ketma-ket o‘rin almashib tasvirlanishida biz buni ko‘rshimiz mumkin.

“Ikki eshik orasi” romanida voqealari Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, asosan, ikkinchi jahon urushi yillarda bo‘lib o‘tadi. Shu bilan birga, adib asarda o‘rnida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan ham hayajonli lavhalar chizadi. Adib asar syujeti va kompozitsiyasini ishlashda mumtoz adabiyotda (“Sab‘ayi sayyor” dostonida) mavjud bo‘lgan qoliplash san’atidan ijodiy foydalanib, yangilik yaratgan. Roman voqeasi Robiya, Qora amma, Kimsan Xusanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra’no, Umar zakunchi, Olimjon Komilov kabi turli xarakter va turli toifadagi to‘qqizta obraz tilidan hikoyalar tizmasida berilgan. Bu hikoyalar mazmunan bir-biri bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun tugal, original va jozibador syujetini hosil qiladi. Asarda asosiy obrazlargina emas, balki Rashid, Abzi, Bashor opa, Oysara, Samadov singari epizodik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Asarda sun’iylik yo‘q, aksincha ishontirish san’ati kuchli. Adib qaltis, murakkab masalalarni ham, favqulodda topqirlik bilan ishonarli qilib tasvirlaydi. Qora ammaning o‘z o‘g‘li Kimsanning sevgilisi Robiyani ilojsizlikdan Shomurodga to‘y qilib uzatishi, Orif oqsoqolning yoshlik qilib yo‘ldan

ozgan keliniga mardlik bilan adolat qilishi, qismatlari chalkashib ketgan Muzaffar va Munavvar sevgisi tasvirlangan sahifalarda ayniqsa bu hol ochiq ko‘rinadi. Muzaffarning urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylanishi, ko‘p jabr sitamlar tortishi va o‘zining tuqqan onasi Ra’no urush to‘zonlari Ichida dovdirab yo‘ldan toyib hayot so‘qmoqlariga kiradi va eriga xiyonat qiladi. Umar zakunchining hiylasiga uchib unga o‘ynash bo‘ladi.

Muallif bu voqealardan muhim ma’naviy xulosa chiqaradi — Umar zakuchi bag’ri toshligi, nopoligi uchun, Ra’noning subutsizligi, o‘ylamay ish qilishi, o‘z baxtini ardoqlab avaylamagani uchun keyinchalik butunlay baxtsiz bo‘lishadi. Ular odamlar nazaridan qolib, iztiroblarga, ruhiy qiynoqlarga to‘la hayot kechirishga majbur bo‘lishadi.

Mening fikrimcha ular shunga loyiq edilar!!! Ra’noning hamma narsasi bor edi, hattoki umr yo‘ldoshi Shomurod uni jonidan ortiq ko‘rardi, lekin Ra’no buning qadriga yetmadi. Ra’no o‘z nafsining qurboni bo‘ldi. Hattoki dunyodan ko‘z yumganida farzandi Muzaffar uni so‘nggi yo‘lga kuzatish uchun ham bormaydi! Oilaga hiyonat bu — vatanga hiyonat demakdir! “Ikki eshik orasi” romani personajlarga boyligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Ularning orasida Orif oqsoqol, Xusan Duma, Komil tabib kabilar ajralib turadi. Muallif, ayniqsa, Orif oqsoqol obrazini mukammal chizishga muvaffaq bo‘lgan.

U xalq o‘rtasida katta obro‘ga ega, eng og ‘ir damlarda ham odamlarni qiyin ishlarga otlantiroladi. U ko‘pgina o‘zbek qariyalari kabi tashabbuskor va donishmand. Ayni choqda haqiqatni yuzga aytishdan cho‘chimaydigan shartaki, jasoratli odam. U odamlarni baholashda o‘z me’yoriga ega — odamning belida belbog’I bo‘lishi kerak. Belbog’ uning uchun mardlik, tantilik, odamiylik belgisi. Asarda Kimsan Husanovning ham obrazi muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida kam ishtirok etgan bo‘lsa ham ikki bobdag‘i hikoyasi orqali uning tanti, mard, oriyatli, jasur—belida belbog’i bor yigit ekanligini bilishimiz mumkin. U vatani uchun o‘z jonini fido etadi. Romanda ayollar obraziga ham keng o‘rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma ajralib turadi. Qora amma—mehribon, soda, bardoshli va jafokash ayol.

Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko‘rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o‘zida yashashga kuch topadi. Qora amma olti farzandini yerga qo‘yib, bittagina Kimsaniniyer-u ko‘kka ishonmasdan katta qildi. Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st October - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

yurt ishiga kamarbasta bo'lsin deb yolg'iz farzandi –Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o'g'li urushdan qaytmaydi, lekin mushtipar ona bu xabarga ishonmaydi. Hattoki, yillar o'tsada unga a'za ochmaydi. Ona... bu zotni ta'riflashga til ojizdir!

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, asarda urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, urushning jamiki og'irliklarini, marhumularini Azamat yelkasida ko'targan, o'zi yemay barchasini jangchilar og'ziga tutgan fidoyi dehqonlar jasorat madh qilingan. Nikoh kechasini ertasigayoq kuyovini jangga jo'natib, o'zлari kelinlik liboslarini ish kiyimiga almashtirib og'ir va mashaqqatli mehnatlari, ota o'rniga ketmon ko'tarib dalaga chiqqan go'daklar, o'g'li o'rniga yer chopgan chol-u kampirlar ko'z o'ngingizda paydo bo'ladi. Siz ularning ovozini eshitasiz. Ularning qaddini tik ushlab turgan kuch g'alabaga ishonch edi. Urush yillarida chol-kampirlar ko'zлari nigoron bo'lib jigargo'dshalarini tonggacha duo qilib chiqqanlari ko'z oldingizga keladi... Shu o'rinda ijodkorning mashhur jumlasini aytmoqchiman "Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qo'liga qayta olganida tag'in hayajonlansa, yangi ma'nolar topsa. Eng katta orzuyim shu..." deb yozadi sevimli adibimiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov, O'. (2009). Sakkizinch mo'jiza. Toshkent.
2. Boltaboyev, H. (2011). El sevgan adib. Toshkent.
3. Dusenboyev, O. "Ikki eshik orasi" romani haqid.
4. Sharafiddinov, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida
5. Ahmad, Said. "Ikki eshik orasi" romani haqida
6. Холикова, Н. (2020). Узбек мумтоз адабиётида хотин-кизлар образининг бадиий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).
7. Kholikova, N. D. (2020). The genesis and poetic evolution of character Shirin. Alisher Navoi and the XXI centure.